

SA'DULLA QOSIMOV-TURKISTON ISLOHOTCHISI

*Buxoro davlat pedagogika
Instituti 3-bosqich talabasi
Ergashova Sevinch*

Annotasiya: Ushbu maqolada Turkiston o'lkasidagi jadidchilikning yirik namoyandasi Sa'dulla Qosimov hayoti va siyosiy-huquqiy jarayonlardagi ishtiroki haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Xoniya maktabi Namuna o'quv yurti Qosimovchilik ishi Qizil O'zbekiston jurnali SSSR oliy kengash. Xoniya maktabi Namuna o'quv yurti Qosimovchilik ishi Qizil O'zbekiston jurnali SSSR oliy kengashi.

Sa'dulla Rashidovich Qosimov 1901-yil Toshkent viloyatida dunyoga kelgan. Dastlabki boshlang'ich bilimini 1909-yildan mashhur muallif Eshonxoja Xoniyning yangi usuldagi "Xoniy" maktabida oladi. 1916-yilgacha Mahmudxoja Behbudiyning "Namuna" maktabida taxsil oladi. Ayni shu paytda rus tuzem maktablarida ham ta'lim olib rus tili va zamonaviy fanlarni chuqur o'rganadi. 1918-1919-yillarda "O'zbek pedagogika bilim yurti"da tahsil oladi. Keyinchalik 1919-yilda Munavvarqori Abdurashidxonovning maslahati bilan Bolsheviklar firqasiga o'tadi. 1919-yil dekabr oyiga qadar o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullanadi. 1920-1921-yillarda harbiy xizmat o'taydi va qaytgach 1922-yildan boshlab Eski shahar ijroiya qo'mitasida maorif bo'limi raisining o'rinbosari lavozimiga ishga qabul qilinadi. 1923-yildan boshlab Toshkent viloyati sudi a'zosi 1924-yildan viloyat sudi raisi o'rinbosari lavozimlarida samarali faoliyat yuritadi. 1925-yildan O'zSSR MIK Prezidiumining qarori bilan O'zSSR Oliy sudi raisi lavozimida ish boshladi. 20-yillarning ikkinchi yarmi 30-yillar boshida mavjud tizimga muxolifatda turganlarga qarshi keng qatag'onchilik siyosatini olib borish davri Respublikaning vatanparvarlik kayfiyatidagi rahbarlarni birlashtirgan "gayripartiyaviy guruhlar" ("18lar harakati" "Qosimovchilik" "Inogomovchilik") birin keyin fosh etila boshlandi. Mazkur qatag'on siyosiy kompaniyalarining eng mash'umi va ko'plab qurbonliklarga sabab bo'lgan hech shubhasiz "Qosimovchilik ishi" edi. Afsuski Sa'dulla Qosimov faoliyati haqida na tarixchi olimlar na siyosatshunoslar tomonidan aniq baho berilmagan. Ya'ni to'g'riroq qilib aytganda oqlanmagan. Keyingi yillarda ya'ni mustaqillik yillarida muhtaram prezidentimiz Farmonlariga binoan O'zbekiston Oliy sudi SSSR davrida qatag'on qilingan 205 nafar siyosatchini aybsiz deb e'lon qiladilar. Jumladan Sa'dulla Qosimov va 1930-1931-yillarda "Qosimovchilik ishi" bilan ayblanib qatag'on qilinganlar ham aybsiz deb e'lon qilindilar. Sa'dulla Qosimov xalqning huquqiy madaniyatini yuksaltirish va qonuniylikni ta'minlashda keksha shariat qozilari tajribalaridan unumli

foydalandi. Uning faoliyati davomida Chor Rossiyasining sud amaliyotida ishtirok etgan ilk o'zbek huquqshunoslar Ubaydullo Xojayev va Toshpo'latbek Norbótabekovlar ustozlik qilishgan. Jumladan 1925-yil 9-dekabrda Sa'dulla Qosimov boshchiligidagi Toshkent viloyati sudi plenar majlisida 1926-yil 5-yanvarda 1-Toshkent viloyat sud ishchilari konferensiyasini o'tkazish bo'yicha qarorlar qabul qilinadi. Unda Ubaydullo Xojayevning "Viloyat sudi va yuridik kurslar faoliyati", Toshpo'lotbek Norbótabekovning "Joylarda huquqiy yordam holati" shu bilan birgalikda "Sud ishlari orasidagi ayollar faoliyati" kabi masalalarda ma'ruzalar qilishlari belgilab qo'yildi.

Sa'dulla Qosimov shijoatli, huquqshunos sifatida haqiqiy iste'dod sohibi Uning tashabbusi bilan 1928-yil 5-mart kuni Samarqand shahridagi Oliy sud binosi zalida O'zbekiston yustitsiya ishchilarining 1-respublika syezdi o'tkazilishiga qaror qilindi. Shu munosabat bilan 1928-yil 14-19-fevral kunlari O'zSSR xalq komissarligi prokurori Ahmadbek Mavlonbekov SSSR oliy rahbariyatiga, jumladan RSFSR adliya xalq komissari Yansonga, uning o'rinbosari Krilinko va SSSR Oliy Sudi prokurori Krasikovlarga taklifnomalar jo'natadi.

Tantanali ochilishdan song 7-mart kuni ilk ma'ruzani Ahmadbek Mavlonbekov o'qidi. U o'z fikrlarini shoro an'analarga mos balandparvoz gaplar bilan emas, balki hayotiy misollar orqali bayon etdi. U mavjud tizimni qat'iy tanqid ostiga olib, har bir sohada qonuniylikka amal qilishda malakali va ma'lumotli xodimlarni ko'paytirishga alohida to'xtaldi.

Hozirgi kunda bu yig'ilishning to'liq tafsilotlari aks ettirilgan hujjatlar qo'limizda mavjud emas. Hattoki tadbirida so'zlangan ma'ruzalar ham keyinchalik yo'q qilib yuborilgan

Sabab esa, o'sh vaqtda o'zini O'rta Osiyoning norasmiy egasi deb hisoblagan Sredazbyuro rahbarlari anjumanda yosh o'zbek huquqshunoslarining tashabbuskorligini ko'rib talvasaga tushib qoladi.

1929-yil boshlarida Sa'dulla Qosimovning ustidan millatchilik va poraxo'rlikda ayblab shikoyat tushgan degan bahona bilan Markaz uning mehnat faoliyati ustidan tekshirish belgilaydi. Shu ishni o'rganish maqsadida Moskvadan Rastopchin, Kornilov hamda mahalliy vakil Ahmadbek Mavlonbekov ishtirokida komissiya tashkil etildi. 3oy davom etgan tekshiruv va surishtiruv ishlaridan song Sa'dulla Qosimovga qarshi hech qanday dalil va ayblovlar isbotini topmagach S.Qosimov ozod etiladi va o'z lavozimida ishlashda davom etdi. Komissiya Moskvaga borishi bilan qattiq tanqidlarga uchradi va ular oldiga Qosimovni mahf etish vazifasi qo'yildi...

Sa'dulla Qosimov o'sha kunlarni tergovda shunday eslaydi: "Ozodlikka chiqqanimdan xursand edim.. Meni ko'rgani Germaniyada o'qigan agronom do'stim Abduvahob Murodiy keldi. Keyin ustozimiz

Ubaydullo Xójayevni oldilariga borishga kelishdik. Ertasi kuni soat 10da Revolyutsiya skverida kórishishga kelishdik. Belgilangan joyga borganimizda u kishi kelmadilar. Ğani Musaxonov kelib u kishini qamashmoqchi ekanini ish joylaridan olib ketishganini xabar qildi. Murodiy esa ana endi qama-qama boshlanadi dedi alam bilan. Shu tariqa qamash ishlari qaytadan boshlandi. Meni ham qayta qamashdi va shu bilan tahqirli va qiynoqli tergovlar boshlanadi"

1930 -yil mart oyida S.Qosimov ayblov bayonnomasi SSSR Oliy sudi prokraturasining muhim ishlar bóyicha tergovchisi tomonidan tuzib Samarqandda boshlangan sud ishi 1930-yil 25-martidan 21-iyuniga qadar davom etd. Uch oy davom etgan bu sud insoniyat tarixidagi eng manfur sahnali sud bóldi.

Sud zalida uni ataylab tahqirlovchi sózlar bilan kesatishlar bóldi. U haqidagi maqolalarda S.Qosimovni shórolar mamlakatini aĝdarib tashlovchi kuchga ega haqiqiy xalq dushmani deb ta'kidlaydilar. Biroq Sa'dulla Qosimov aslo ózini yóqotmadi. Tiz chókmedi. Ming marotaba ta'kidlashsa ham hech kimdan uzr sóramadi. Karuskiy "Sud zalida ózini xuddi milliy qahramon burgut qilib tutayapti hech narsa demaydi" deganidan sóng Sa'dulla Qosimov tilga kiradi. Uyimni tintuv qilishganida hamma hujjatlarimni olib ketishgan qolganlarini esa kóz óngimda yoqib yuborishgan hujjatlarimsiz aybsiz ekanimni qanday isbotlayman. Kingadir tuhmat qilaymi. Men uchun vijdotsiz yashagandan kór pok vijdon bilan ólganim afzal deb ta'kidlaydi

1930-yil martdan boshlangan matbuotdagi shovqin 3yilgacha tóxtamaydi. "Qizil O'zbekiston", "Pravda Vastoka", "Sharq haqiqati" "Yangi Farĝona" gazetalarida keng miqyosda tinimsiz maqolalar bosib chiqarildi. Bu Sudga raislik qilgan SSSR Oliy sudi sudyasi Vasilyev Yujin S.Qosimovni qoralar ekan asosiy ayblari sifatida Andijonda bir el oqsoqoli bólgan boyning ishini kórganida xalq uning ólimini kutayotgan bir vaqtda boyga 6yil qamoq jazosi bergani, Ubaydullo Xójayevning dósti ekanligini ayta oldi xolos. 1931-yil 21-iyun kuni SSSR Oliy sudi tomonidan Sa'dulla Qosimov, Badriddin Sharipov, Nasriddin Olimov, Vyacheslav Spiriddinovning hammasi oliy jazoga hukm qilindi. "Qizil O'zbekiston" jurnalida katta bosma harflar bilan yozilgan qator hammani larzaga soldi. "Qosimovchilik ishi" Stalinning Akmal Ikromovga sovgasi edi.

Xulosa: Sa'dulla Qosimov Turkiston islohotchisi sifatida o'z davrida ijtimoiy va siyosiy islohotlar olib borgan shaxs hisoblanadi. U Turkistonda mustamlaka boshqaruvi sharoitida milliy ozodlik va madaniy rivojlanish yo'lida faol harakat qilgan. Uning islohotlari asosan ta'lim va iqtisodiy sohalarida amalga oshirilgan bo'lib, u mahalliy aholi orasida o'z bilimlarini oshirishga va milliy ongini rivojlantirishga qaratilgan. Qosimovning faoliyati Turkiston tarixida muhim o'rin egallaydi. Sa'dulla Qosimov Turkiston islohotchisi sifatida 20-asrning boshlarida faoliyat yuritgan. U zamonining ijtimoiy-siyosiy muammolarini hal etish va Turkiston xalqlari orasida milliy uyg'onishni rag'batlantirishga intilgan. Qosimov ta'limni rivojlantirishga katta e'tibor bergan. U yangi maktablar tashkil etishga, zamonaviy ta'lim tizimini joriy

etishga va yoshlarni ilmga undashga harakat qilgan. Ta'lim orqali madaniy o'zligini tiklashni maqsad qilgan. U Turkistondagi mustamlakachilikka qarshi kurashda faol ishtirok etgan. O'zbekiston va boshqa Turkiston mamlakatlarida milliy ozodlik harakatlarini qo'llab-quvvatlagan. U xalqni birlashtirish va o'z huquqlarini himoya qilishga chaqirgan. Qosimovning islohotlari va g'oyalari bugungi kunda ham ahamiyatga ega. U Turkiston xalqlarining tarixi va madaniyatiga qo'shgan hissasi bilan tanilgan. Uning faoliyati ko'plab tarixiy shaxslar va harakatlarga ilhom bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
2. Bahrom Irzayev. [www.shosh.uz „Toshkentliklar“]. Qaraldi: 2023-yil 7-noyabr.
3. Ozod Sharafiddinov. [www.ziyouz.uz „Sa'dulla Qosimovni bilgan bormi? (2002)“] (2013-yil 30-aprel)
4. Qosimovchilik milliy aksil inqilobchilik. A.Ikromov, U.Yusupov, A.Karimov. 1930. O'znashr. Samarqand. 8-b.
5. Abdulla Karimov. Aksilinqilobiy millatchilik saboqlaridan ba'zi xulosalar. Qosimovchilik milliy aksilinqilobchilik. A.Ikromov, U.Yusupov, A.Karimov. 1930. O'znashr. Samarqand. 31-b.
6. Munavvar qori yoxud "Milliy ittihad" ishi. 12 tom, 70–78-betlar.